



PREZIDENTIMIZ
SHAVKAT MIRZIYOYEV
XITOI XALQ RESPUBLIKASI RAISI
SI-SZINPINNING TAKLIFIGA
BINOAN 23-YANVAR KUNI DAVLAT TASHRIFI
BILAN USHBU MAMLAKATGA KELD



TARBIYA VA TA'LIM
YANGI O'ZBEKISTON
TARAQQIYOTI
KAFOLATIDIR

4-sahifa



«MILLIY TIKLANISH»
DEMOKRATIK
PARTIYASINING IJTIMOY-
SIYOSIY GAZETASI

milliy tiklanish

QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

№ 2
1234 2024-yil
24-yanvar, chorshanba
Adol - 5 036

KELAJAKKA XIYONAT BU!

YOKI BOLAJONLARIMIZNING BIR YILDA FAQAT BIR OY MULTIFILM KO'RISH IMKONIGA EGA EKANLIGINING SABABI NIMADA?



O'zbekiston Kinematografiya agentligi matbuot xizmati ma'lumotlariga ko'ra, hozirda rossiyalik mashhur kinoproduser va rejissor Timur Bekmambetov bilan 8 million dollar evaziga «Xo'ja Nasriddin» global loyihasi amalga oshirilayotgan ekan. Mazkur tashabbus professional darajada ishlash, tajriba almashish, chet ellik mutaxassislar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun katta zamin yaratishi mumkin, degan taxminlar ilgari surilyapti.

agentligi bosh direktori Firdavs Abduxoliqov aytganidek: «...bu personaj nafaqat bolalarimiz va yoshlarimizning, balki, kattalarning ham sevimli multiqahramoniga aylanadi». Aslida shunday bo'lishi ham kerak, chunki bizda o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalardan biri Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasali, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Kavsar Turdiyeva kabi bolalar ijodkorlarining katta adabiy merosi bor.

AFANDI MULTQAHRMONGA AYLANYAPTI
Xabarni o'qib, o'zbekning Xo'ja Nasriddini sarguzashtlari, mot qiluvchi hazillari, eshak ustida biror masal yoki voqea aytib berayotgani haqidagi multserialni tasavvur qildim. Harqalay, qiziq va bolalar vaqtini maroqli o'tkazishga arziydigan biror «asar» yaratilsa kerak. Ehtimol, Kinematografiya

Bugun ham muhtaram kinochilarimiz sukut saqlab, kamtarlik qilishda davom etmoqdalar. TV kanallarida amerika yoki rus kinochilarining 80-yillarda ishlab chiqarilgan kinolari ketsa ketyaptiki, o'zimiznikidan darak kam. Eng yomoni, ana shu «asar»lar bizni, ayniqsa, farzandlarimizni tarbiyalashda davom etmoqda.

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

QAYSIKI JAMIYAT TASHABBUS KO'RSATMASA, O'Z-O'ZINI NAZORAT QILIB, ISLOH QILMASA, HECH QANDAY O'ZGARISHLAR YUZ BERMAydi



HALIMA XUDOYBERDIYEVA RAVSHAN KOMILOVDAN RANJIGAN EDIMI?



NEGA BEHBUDIYNING SAVOLI HAMON JAVOBSIZ QOLMOQDA? yoki O'zbekistonda to'ylar haqida qonun qabul qilinishini taklif qilaman

GLOBALLASHUV DAVRI

barcha ziyolilar, pedagoglar, olimlar, umuman, keng jamoatchilikdan yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi yo'lida faol bo'lishni taqozo etmoqda

SANOAT UCHUN YANGI IMKONIYATLAR YARATILYAPTI

Iqtisodiyotda yuqori samarali innovatsion strategiyani shakllantirish va amalga oshirish sanoat korxonalarining tashqi va ichki bozorlardagi barqaror mavqeyini ta'minlash imkonini beradi. Zero, bu iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri hamdir.

YUSUF XOS HOJIB O'Z ASARIDA «ALLOH» ISMINI QO'LLAMAGAN!

Shubhasiz, ulug' mutafakkir adib Yusuf Xos Hojib o'z davrining e'tiqodli kishilaridan edi. Ammo shunga qaramay, ul zot «Qutadg'u bilig» asarida biror marta ham «Alloh» ismini qo'llamaganlar (Firdavsiy ham «Shohnoma»da asosan «Yazdon» ismini ishlatgan). Asar ushbu jumla bilan boshlanadi: «Hamdu sepasu minnatu ogdi Teuri 'azza va jallaqa...» (Tangri azza va jallaga hamd, sipos, minnatdorchilik va maqtoq...).



YANGI QONUNLAR BIZGA NIMA BERADI?

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida asosiy e'tibor Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ko'rib chiqilgan masalalar muhokamasiga qarald. Fraksiya rahbari Alisher Qodirov ushbu masalaga munosabat bildirar ekan, bundan partiyaning har bir a'zosi tegishli xulosalar chiqarishi hamda mazkur yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarni saylovchilarga tushuntirishda faol bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Davlat rahbari tomonidan o'tkazilgan yig'ilishda muhokama qilingan masalalarga iqtisodiy kompleks masalasi deb qarash kerak emas. Chunki ushbu yig'ilishdan chiqarishimiz kerak bo'lgan xulosalar bor. Qaysiki jamiyat tashabbus qilmasa, o'z-o'zini nazorat qilib, isloh qilmasa, hech qanday o'zgarishlar yuz bermaydi, — dedi fraksiya rahbari.

Davomi 2-sahifada

Statistika natijasiga ko'ra, maktab yoshidagi bolalarda asabiylashish, tish og'rig'i, ovqat hazm qilish tizimida muammolar oqibatida endokrin tizim, ovqatlanish va metabolik kasalliklar bilan bog'liq shikoyatlarga ega bolalar o'rtacha

41 foizni tashkil etmoqda

4-sahifa



YANGI QONUNLAR BIZGA NIMA BERADI?

(Boshlanishi 1-betda)

Shundan keyin kun tartibidagi masalalar muhokamasiga o'tildi. Jumladan, deputatlar «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish tartibini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonuni loyihasini muhokama qildilar. Mazkur loyiha «O'zbekiston-2030» strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'nalishi bo'yicha 2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxatining 20-bandida belgilangan vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan.



Ta'kidlanganidek, ushbu qonun loyihasi og'ir oqibatli yo'l transport hodisalarining kelib chiqishini oldini olishga, yo'l harakati ishtirokchilarining madaniyatini oshirish va yo'l harakati qoidalariga rioya

javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga rioya qilinishi nazarda tutilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunning tegishli moddasida axborot resursi egasining intellektual mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi shaxsiy javobgarligini oshirish nazarda tutilyapti. Deputatlar qonun loyihasi bilan yo'l harakati qoidalaridagi ayrim muammo va kamchiliklar bartaraf etilishini inobatga olib, uni birinchi o'qishda ma'qulladilar. Fraksiya a'zolari yana bir muhim masala – «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasini ham birinchi o'qishda ko'rib chiqdilar.

Mazkur qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi «Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoniga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga Ichki ishlar vazirligi tomonidan kiritilgan. Aytish joizki, so'ngi yillarda inson qadrini ulug'lash, huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ishlar tizimli tarzda amalga oshirilyapti. Buning mantiqiy davomi sifatida mazkur qonun loyihasi ishlab chiqildi. Mas'ul ma'ruzachining fikricha, loyiha ishlab chiqishdan ko'zlangan maqsad xalqaro tajribaga tayangan holda O'zbekiston Respublikasining «Jinoyat-ijroiya kodeksi»ga ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar bilan insonparvarlik

tamoyili asosida munosabatda bo'lish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishini ta'minlashga oid normalarni kiritishdir. Shu bilan birga ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalarga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilish tartibini joriy etish nazarda tutilmoqda. Qonun loyihasini qo'llab-quvvatlagan deputatlarning fikricha, mazkur loyiha qabul qilinishi davlatimizning inson huquqlari ta'minlash bo'yicha xalqaro hamjamiyat oldidagi nufuzi oshishi va xalqaro reytinglarda ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Shuningdek, yangi tahrirdagi O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasi bilan ko'zlangan maqsadlarga erishish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlari yaratilishiga hamda insonning qadr-qimmatini daxlsizligi kafolatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Yig'ilish yakunida «Mamlakatimizda dori vositalari va tibbiy buyumlarining ulgurji hamda chakana savdo holati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so'roviga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining javobi ham muhokama qilindi. Deputatlar kun tartibiga kiritilgan barcha masalalar yuzasidan fraksiya muqaddim nazarini bildirib, tegishli qaror qabul qildilar.

Hamdam NIYOZOV,
partiya Markaziy kengashi
bo'lim boshlig'i

LOYIHADA SKUTER VA BOSHQA INDIVIDUAL HARAKATLANISH VOSITALARI HAYDOVCHILARINI YO'L HARAKATI QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKKA TORTISH VA JAVOBGARLIKNING MUQARRARLIGI PRINSIPLARIGA RIOYA QILINISHI NAZARDA TUTILGAN.

etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, loyihadagi skuter va boshqa individual harakatlanish vositalari haydovchilarini yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish va

✓ Isohoh



Farhod ZAYNIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Sanoat, qurilish va savdo
masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari

SANOAT UCHUN YANGI IMKONIYATLAR YARATILYAPTI



Iqtisodiyotda yuqori samarali innovatsion strategiyani shakllantirish va amalga oshirish sanoat korxonalarining tashqi va ichki bozorlardagi barqaror mavqeyini ta'minlash imkonini beradi. Zero, bu iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri hamdir.

Ushbu sohaga zarur sharoit yaratish maqsadida so'ngi yillarda 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ziyod kichik sanoat zonasi tashkil etilib, ularning infratuzilmasiga 10 trillion so'm miqdorida mablag' yo'naltirildi. To'qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, charm, farmatsevtika, elektr texnikasi kabi tarmoqlarni «drayver»ga aylantirish uchun 3 milliard dollarlik moliyaviy resurslar ajratildi...

Keyingi yillarda sanoat sohasini xomashyo bilan ta'minlash uchun geologiya-qidiruv ishlari 3 barobarga ko'paytirildi va 600 dan ziyod yangi konlar aniqlandi. Natijada sanoat korxonalarini soni 2 barobarga ko'payib, 100 mingtaga yetdi, ishlab chiqarish hajmi esa 1,4 baravarga ortdi. Bu ayniqsa, hududlar rivoji uchun ijobiy ta'sir qilmogda.

Keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan sanoat uchun yangi imkoniyat va qo'shimcha moliyaviy resurslar ajratilib, soha yanada qo'llab-quvvatlanayotgani yaxshi samara bermogda. 2023-yildagina sanoatni rivojlantirish uchun yo'naltirilayotgan investitsiya hajmi 113,2 trillion so'mgacha oshdi. Bu esa iqtisodiyotga kiritilayotgan jami investitsiyalarning salkam yarmini, ya'ni 49,9 foizini tashkil etadi.

Shu bilan birga, yurtimizda sanoatni rivojlantirish uchun shart-

sharoitlarni yaxshilash maqsadida soliq stavkalarini pasaytirish, tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini soddalashtirish, yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish va kadrlar tayyorlash bo'yicha ham faol ish olib borilmoqda.

Bunday sa'y-harakatlar natijasida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining jahon bozorida qo'ng'iroqbardoshligi bilan birga, mamlakatimiz eksport salohiyati ham faol rivojlantirilmoqda. Bu o'z navbatida, ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatini kengaytiriyapti.

Eng asosiysi, bu jarayonda hududlarning sanoat salohiyati va raqobatbardoshligi ham oshdi. Mamlakatimizda ushbu sohaga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, u iqtisodiyotimiz lokomotiviga aylandi. Bu quvonarli hol, albatta. Lekin sohada ayrim muammolar ham borki, ularni o'z vaqtida bartaraf etmasdan turib kutilgan natijaga erisha olmaymiz.

Davlatimiz rahbari raisligida 2024-yilda iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda ham ayni shu masalalarga alohida e'tibor qaratilib, o'tgan yili sanoat 6 foiz o'sgani holda, ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymat 40 foizdan oshmayotgani qayd etildi.

Afsuski, yirik sanoat tarmoqlariga soliq yuki kamaytirilgan bo'lsada, ko'pgina tarmoqlarda ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada oshgan. Jumladan, 10 ta yirik korxonada xarajatlar daromaddan tezroq o'sgan. Shu sababli tannarxni qisqartirish va samaradorlikni oshirish uchun sanoatda qo'llab-quvvatlash mexanizmlari birinchi navbatda yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan va bozori

bor mahsulotlar uchun beriladi.

2024-yilda qo'shilgan qiymatni 45 foizdan oshirish, tannarxni 15 foizga kamaytirish, umuman, sanoatda 7 foiz o'sishni ta'minlash bo'yicha korxonabay chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqildi. Yig'ilishda bu masalalarga e'tibor qaratilib, mutasaddirlar oldiga aniq vazifalar qo'yildi.

Shuningdek, har oyda kamida 2 tadan tarmoqni tahlil qilish orqali tannarxni kamaytirish, qo'shilgan qiymat va mehnat unumdorligini oshirish hamda yangi imkoniyatlarni ishga solish bo'yicha ko'rsatmalar berildiki, bu albatta, biz – deputatlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Bu borada ushbu vazifalar ijrosini o'z vaqtida ta'minlashda bor kuchimiz, g'ayratimiz va salohiyatimizni ishga solishimiz kerak.

Ma'lumki, «O'zbekiston – 2030» strategiyasida sanoatning «drayver» sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. Xususan, har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish maqsad qilingan. Shubhasiz, ularning amalga oshirilishi aholi farovonligi, iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Albatta, ushbu sohaga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki sanoat rivoji tufayli unda band bo'lgan xodimlar soni ko'payadi, ularning bilim va mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi. Zero, milliy iqtisodiyot, fan, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji ham aynan sanoat taraqqiyotiga bog'liq.

✓ Madaniyat



PEKINDA O'ZBEKISTON TASVIRIY VA XALQ AMALIY SAN'ATI KO'RGAZMASI OCHILDI

Xitoy Xalq Respublikasi poytaxti Pekin shahridagi Xitoy milliy san'at va hunarmandchilik muzeyi – Xitoy nomoddiy madaniy meros muzeyida O'zbekiston tasviriy va xalq amaliy san'ati ko'rgazmasi ochildi.

Ko'rgazmaning ochilish marosimida ikki davlat madaniyat vazirlari hamda O'zbekiston va Xitoy Badiiy akademiyalari raislari, madaniyat, san'at sohasi vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi Akmal Nuriddinov ushbu ko'rgazmaning tashkil etilishi xalqlarimiz o'rtasidagi bir necha uchrashuv va muzokaralar mamlakatlarimiz o'rtasidagi global tinchlik, farovonlik va barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan hamkorlikka yangi turtki bo'ldi.

Pekinda O'zbekiston san'ati ko'rgazmasining ochilishi ko'p asrlar davomida Buyuk ipak yo'lining asosiy bog'ini tashkil etib kelgan O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasidagi madaniy hamkorlikning bugungi kundagi darajasini ko'rsatishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Xitoy

Xalq Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Xitoy san'at akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi «Hunarmand» uyushmasi hamkorligida tashkil qilingan O'zbekiston tasviriy va xalq amaliy san'ati ko'rgazmasida Shahnoz Abdullayeva, Akmal Nur, Fayzullo Ahmadaliyev, Ibrohim Valixojayev, Baxtiyor Mahkamov va boshqa ko'plab rassomlarimizning so'nggi o'n yilda yaratgan 50 ta rangtasvir asari namoyish etilmogda.

Kartinalarda Sharqning qadimiy rivojatlari, she'riyat va tarixdan ilhomlangan turfa obrazlar, xalq turmushi, jamiyatning yangi hayoti va ijodiy faoliyatining o'ziga xos qirralari ochib berilgan.

Ekspozitsiyaning xalq amaliy san'at bo'limiga bag'ishlangan qismida ko'p asrlar an'analarga asoslangan, zamonaviy o'zbek hunarmandlarining nodir san'at asarlari namoyish etilmogda.

Toshkentlik ustalarining yig'och o'ymakorligi va naqqoshlik asarlari, Toshkent, Samarqand va Buxoro hunarmandlarining kashtachilik, kandakorlik va miniatyura asarlari, shuningdek, marg'ilonlik abrband-ustalar tomonidan qo'lda to'qilgan adras va shoyilar, Rishton va G'ijduvon usta kulollarining ijodiy buyumlari shular jumlasidandir.

N.USMONOVA, O'ZA



MARKAZ FAOLIYATI ISLOHOTLARGA MOS KADRLAR TAYYORLASHGA QARATILDI

2023-yilda «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining O'quv tadqiqotlari va tahlil markazi tomonidan 50 dan ortiq o'quv-seminar, davra suhbat va uchrashuvlar tashkil qilindi. Ishtirokchilar soni esa 5 mingdan ortiq bo'ldi. Eng asosiysi, tadbirlarga yetakchi ekspertlar, siyosatshunoslar, umuman, o'z sohasining yetuk mutaxassislari taklif etildi.

Ma'lumki, partiyamiz konstitutsion islohotlar tashabbuskorlaridan bir hisoblanadi. Shu bois, markaz tomonidan 2023-yilning ilk o'quvlar mavzusini yangi tahrirdagi Bosh Qonunga kiritilgan o'zgarishlar mazmun-mohiyati hamda Yangi O'zbekiston islohotlari tashkil qildi. Unda partiya qoshida tashkil etilgan Ekspertlar kengashi, deputatlar va partiya vakillari faol ishtirok etdilar.

Ushbu o'quvlar «O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi, iqtisodiy itifoqlar va milliy manfaatlar» mavzusidagi davra suhbat bilan boshlangandi. Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari o'zgarishlari raisi Ilhom Abdullayev va xalqaro ekspert Yuliy Yusupovlar o'z mulohazalarini bildirishgandi.

Qonun-qoidalar asosida yashash qadriyat darajasiga ko'tarilishi lozim... «Korrupsiyaning paydo bo'lishi, ta'siri va unga qarshi kurashish» mavzusidagi seminar yuqoridagi fikr bot-bot tilga olingandi. Chunki korrupsiya Yangi O'zbekiston islohotlari samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan og'riqli illatga aylangan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy ekspertlar guruhi a'zosi Nodira Zikrillayeva ishtirokida o'tgan uchrashuvda qayd etilganidek, insoniyat paydo bo'libdiki, u o'z nafsining quli bo'lib yashaydi. Jilovlanmagan, tiyilmagan nafs bor joyda esa, albatta, korrupsiya ildiz otadi.

Har qanday jamiyatda qonun ustuvor bo'lmas, odamlar qonunlarga itoat qilishmas ekan, bu illatga qarshi qaratilgan barcha harakatlar zo'ye ketadi, - degandi N.Zikrillayeva.

Xo'sh, bu illatga qarshim immunitetni hosil qilish, kuchay-



tirish uchun nima qilish kerak?

N.Zikrillayevaning fikricha, bunda uchta jihatga e'tibor qaratish lozim: Jumladan, qanday majburiyat va erkinliklarimiz borligini bilish uchun avvalo Konstitutsiyamizni chuqur o'rganishimiz kerak. Ikkinchidan, har bir shaxs Jinoyat kodeksini bilishi va u orqali inson nima qilish mumkin emasligi, taqiqlangan harakatlar uchun qanday jazo berilishi mumkinligini unutmasligi lozim. Uchinchidan, Soliq kodeksida belgilangan normalardan ham xabardor bo'lishi zarur. Bu kodeks orqali biz davlatga nima berishimiz va o'z navbatida davlat bizga nima berishi kerakligini o'rganamiz. Bundan esa eng avvalo, noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanmasligimiz, soliqlarni esa o'z vaqtida to'lashimiz kerakligini o'rganamiz.

«O'zbekistonda xususiy ta'lim» mavzusida bo'lib o'tgan suhbat ham qiziqarli kechgandi. Ekspert Hikmat Abdurahmonov xususiy ta'limni kimdir oqlab, kimdir oqlamaganiga munosabat bildirar ekan, bu masala rivojlangan davlatlarda ham haligacha muhokama qilinishini ta'kidlagandi.

«El-yurt umidi» jamg'armasi stipendianti Samandar Ismoilov esa agar mamlakatimizga xususiy ta'lim ertaroq kirib kelganida bunday savollar tug'ilmasligini, yaqin yillarda dunyoning eng



yaqin universitetlari reytingiga O'zbekistondan aynan xususiy ta'lim muassasalari kirishi mumkinligini aytgandi. Xo'sh, bugun xususiy ta'limda moddiy manfaatdorlik ustunmi yoki sifatli ta'limmi? Tadbirkor Zafar Hoshimovning fikricha, xususiy ta'lim biznes sifatida ham rivojlansa, banklar, moliya tashkilotlari, investorlar bu sohaga pul tiksa, albatta, ta'lim yanada rivojlanadi.

«Tarbiyada milliy o'yinchoqlarning o'rni» mavzusidagi suhbat ham ko'pchilik hamkasblarimiz e'tiborini tortgan edi. O'sha suhbatda Markaziy Osiyoning birinchi raqamli o'yinchoq ishlab chiqaruvchisi, tadbirkor Anvar Abduqayum va partiya faoli Abror Po'latov ishtirok etishgandi.

Anvar Abduqayum milliy

MARKAZ TOMONIDAN 2023-YILNING ILK O'QUVLARI MAVZUSINI YANGI TAHRIRDAGI BOSH QONUNGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR MAZMUN-MOHİYATI HAMDA YANGI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI TASHKIL QILDI. UNDA PARTIYA QOSHIDA TASHKIL QILINGAN EKSPERTLAR KENGASHI, DEPUTATLAR VA PARTIYA VAKILLARI FAOL ISHTIROK ETDILAR.

o'yinchoqlarning bolalar tarbiyasidagi o'rni haqidagi savolga javob berar ekan, afsuski keyingi paytlarda bozorlarimizda milliy qadriyatlarimizga yot o'yinchoqlar ko'payib borayotgani, bularga qarshi cheklash bilan kurashib bo'lmashligini, aksincha, milliy multfilmlarimizni, ular orqali milliy qo'g'irchoqlarimizni yaratish va targ'ib qilish orqali yaxshi natijaga erishish mumkinligini aytgandi.

Nima uchun «Zumrad va Qimmat» multfilmi ommalashmayapti yoki farzandlarimiz milliy o'yinchoqlarimizni o'ynamayapti? Chunki milliy multfilmlarni yaratadigan yaxshi animatorlar, mutaxassislar yo'q, - degandi tadbirkor.

«Konservativ siyosiy partiyalar, ularning parlamentdagi ishtiroki va doimiy faoliyatidagi raqobatbardoshlik indikatorlari» mavzusida o'tgan ochiq muloqotda siyosatshunos Kamoliddin Rabbimov jahon siyosiy maydonidagi zamonaviy tendensiyalar haqida ma'lumot bergan bo'lsa, taniqli jurnalist Bobur Alixonov «Milliy axborot makoni, uni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlashning dolzarb masalalari» mavzuida bugungi medimakonga tashxis qo'ygan edi. Uning fikricha, ana shu makonda ishlayotgan subyektlar o'rtasidagi munosabatlarda «o'yin qoidasi» belgilanmagani, belgilangan bo'lsa ham unga rioya qilinmayotganini ta'kidlagandi.

Masalan, har qanday sport turining o'z qoidalari bor va unga barcha sportchilar amal qiladi. Medimakonda esa ana shunday qoida yo'qligi ma'lum ma'noda tushunib bo'lmaydigan voqea-hodisalarning yuz berishiga sabab bo'lmoqda. Buni mas'uliyat, javobgarlik mezonlari yo'qolib borayotganida ham ko'rish mumkin. Hatto bunda qonunchiligimizda ham ko'plab nomutanosibliklar borligini aytish joiz.

Xavotirli tomoni, keyingi yillarda bu makonga kirib kelayotganlarning aksariyati mutaxassis emas. Hatto ma'lumoti ham yo'q. Gazeta, jurnal yoki davlat ro'yxatidan o'tgan OAVning har bir ma'lumotida mas'uliyat bor, ertaga tarqatgan axboroti uchun javob berishini biladi. Oddiy bir bloger yoki ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi esa, javobgarlikni bilmaydi, his qilmaydi. Xo'sh, nima uchun shu darajaga yetdik?

B. Alixonov bu savolga javob berar ekan, blogerlarning yaxshi tomonlarini e'tirof etgan holda, bugun ularga OAVning yorqin namunasi sifatida qaralayotganiga e'tiroz bildirdi.

Uning aytishicha, keyingi paytlarda ba'zi blogerlar ortida manfaatdor kuchlar borligi sezilib qolyapti. Ya'ni, ayrim blogerlarning muammoni yoritishda shaxsiy manfaatdorligi ko'zga tashlanyapti. Shu bois, blogerlik institutiga bo'lgan ishonch tobora susayyapti.

Bunda eng asosiy aybdor, biz - jurnalistlar. Biz makonning egasi sifatida o'z o'rnimizni, tashabbuslarimizni ularga berib qo'yayotgandekmiz, - degandi taniqli jurnalist.

Ma'lumki, har qanday mamlakatning kelajagi salohiyatli kadrlar, bilimli yoshlar va mas'uliyatli hamda ma'rifatli ustozlar ta'lim-tarbiyasiga bog'liq. 2023-yilda markaz tomonidan tashkil etilgan har qanday tadbirda ana shu mas'uliyat bilan birga eng dolzarb mavzular ko'tarilib, partiya vakillari hamda deputatlarning siyosiy qarashlarini kengaytirishga harakat qilindi.



Nargiza HAMIDOVA, O'quv tadqiqotlari va tahlil markazi direktori v.b.

Hamkorlik

Kuting!

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AKT AKADEMIYALARI SONI OSHIRILADI

Bugungi kunda O'zbekiston jahonning bir qancha rivojlangan mamlakatlari bilan nafaqat iqtisodiy, balki ta'lim sohasida ham hamkorlik qilib kelmoqda.

Masalan, O'zbekistonda Xitoyning «Huawei» kompaniyasi idorasi 1999-yilda ochilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu kompaniyaning 170 dan ortiq mamlakat va mintaqalarda ofislari mavjud. Mazkur tashkilot dunyoda axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi yechimlari va intellektual qurilmalarni yetkazib beruvchi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari Komiljon Karimov «Huawei» kompaniyasining Pekin shahridagi bosh ofisi va ko'rgazma markaziga tashrif buyurib, «Huawei Uzbekistan» kompaniyasi bosh direktori Chen Szyakay bilan uchrashdi.

Uchrashuvda ta'lim sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va O'zbekistonda AKT sohasi uchun

kadrlar tayyorlashni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi, deyiladi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotida.

Muzokaralar natijasida O'zbekiston oliygohlarida AKT akademiyalarini tashkil etish, mavjudlarini rivojlantirish bugungi zamon talabi ekan qayd etildi. Mazkur akademiya orqali sohaga qiziquvchi iqtidorli yoshlarni o'qitish va ularga sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar, «5G», «Big data», «Cloud computing» va shu kabi axborot texnologiyalari yo'nalishlarida xalqaro miqyosda tan olindigan sertifikatlar berish ko'zda tutiladi.

Qayd etish lozimki, bugungi kunda yurtimiz oliy ta'lim muassasalarida 8 ta shunday akademiya faoliyat yuritmoqda, 2024-yil davomida ularning sonini 15 taga yetkazish orqali kamida 300 ta talabani o'qitish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, AKT sohasidagi professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish ham dolzarb masalalardan

bo'lib, joriy yilda kamida 15 ta akademiya murabbiylarini tayyorlash rejalashtirildi. OTMning AKT sohasiga mas'ul rahbarlar uchun («Chief Digital officer») esa trening dasturlarini tashkil qilish orqali sohadagi eng ilg'or texnologiyalar va yechimlar bilan tanishtirish imkoniyati yaratiladi.

Kompaniya tomonidan o'tkaziladigan AKT «Competition» tanlovida o'zbekistonlik talabalar ishtirokini ta'minlashga ham alohida to'xtalib o'tildi. Bundan tashqari, o'zbekistonlik yoshlar ishtirokida har yili bo'lib o'tadigan «Seeds for Future» dasturini tashkil etishga kelishildi. Ushbu dastur orqali talabalar uchun kompaniyaning bosh ofis va filiallarida, ishlab chiqarish komplekslarida stajirovka o'tashlari mumkin bo'ladi. Uchrashuv so'ngida yuqoridagi kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha Anglashuv memorandumini imzolandi.

O'ZA



DEPUTATLAR MAS'ULIYATI IKKI KARRA OSHMOQDA

Kelgusi sonlarda



Yaqinda o'quvchilarning chet tilini qay darajada o'zlashtirganlarini bilish maqsadida O'zbekiston Prezidenti sovrini uchun «Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab» tanlovining tuman va shahar bosqichlarini o'tkazdik. Unda 1-o'ringa 100 million, 2-o'ringa 75 va 3-o'ringa 50 million so'm pul mukofotlari topshirildi.

HUDUDLARDA...

Tarbiya va ta'lim

YANGI O'ZBEKISTON

TARAQQIYOTI KAFOLATIDIR



Sanobar SUYAROVA,
Jizzax viloyati
maktabgacha va maktab
ta'limi boshqarmasi
boshlig'i,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Bugun «Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi» shiori umumxalq harakatiga aylanayotgani bejiz emas. Chunki endi hayotimizni ta'lim-tarbiya va ilm-fan rivojisi tasavvur etib bo'lmaydi, bu hayot-mamot masalasiga aylanganini ta'kidlashga hojat yo'q deb o'ylayman. E'tibor bering: so'nggi yillarda qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning har ikkitadan bittasi ta'limga aloqador. Xususan, oxirgi besh yilda bu borada 105 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi ham sohaning chindan hayot-mamot masalasidек muhim sohaga aylanganidan dalolat beryapti.



Tan olaylik, bizda uzoq yillar ustoz va pedagoglarning og'ir mehnati yetarlicha qadrlanmadi, soha vakillarini faqat bayramlar yoxud yirik tantanalarda ko'klarga ko'tardig'i, ammo aslida jamiyatning eng e'tiborsiz qatlamiga aylantirdik. Ular ana shunday byurokratik talablarga ko'milgani yetmagandek, ta'limga umuman aloqasi bo'lmagan ishlarga jalb etildilar. Mshnatiga noloyiq maosh va muntazam tashkiliy ishlardan charchagan o'qituvchi esa nihoyat ta'lim tizimidan bezib, boshqa sohalarga ketishga majbur bo'ldi.

Shukurki, bugun sohaga, uning vakillariga bo'lgan munosabat tubdan o'zgaribdi. Muallimning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish davlat siyosatiga aylandi. Eng asosiysi, ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish va malakali kadrlar yetishtirishga qog'ozda emas, amalda e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasi jiddiy nazoratga olingani ijoiy o'zgarishlarga asos bo'layapti.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2023-yilda respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 33 ming 942 taga yetdi. 3-7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim qamrovi 74 foizga, 6 yoshli bolalarning qamrovi esa 93 foizga yetkazildi. Davlat-xususiy sherikchilik asosida 71 ta, oilaviy shaklda 4,5 mingga yaqin nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etildi. Umumta'lim maktablari soni esa 10 ming 163 taga, nodavlat umumta'lim tashkilotlari 449 taga yetkazildi.

Investitsiya va boshqa qo'shimcha dasturlar doirasida 563 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi va 120 mingga yaqin yangi o'quv o'rnini yaratildi. Qariyb 115 ming o'rinli o'quv binolari mukammal ta'mirlangan bo'lsa, 1 ming 800 ga yaqin ta'lim muassasasiga qayta tiklanuvchi quyosh elektr panellari va quyosh suv isitish qurilmalari o'rnatildi. 53 ta maktab esa uzluksiz yetkazib beriladigan ichimlik suvi bilan ta'minlandi.

Jizzax viloyatida ham bu sohada tizimli ishlar olib borilib, sifat o'zgarishlariga erishilmoqda. Ayni paytda viloyatda 558 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, 235 ta davlat, 1301 ta nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, 14 ta «Barkamol avlod» bolalar maktabi, 1 ta viloyat bolalar kutubxonasi, 12 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internati, Prezident maktabi hamda Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktablari faoliyat ko'rsatmoqda.

Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi 76,2 foizga yetdi. Shu o'rinda, maktablarimizda ta'lim olayotgan 266 796 nafar o'quvchiga 23 133 nafar o'qituvchi to'g'ri kelayotganini ta'kidlash joiz.

O'qituvchilarning faqat ta'lim bilan shug'ullanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilayotgani tufayli sifat ko'rsatkichlari bir muncha yaxshilandi. Shuningdek, o'qituvchilar malakasi xalqaro ta'lim dasturlari asosida oshirib borilayotgani ham o'z samarasini bermoqda. Chunki davlat tomonidan aniq belgilangan chora-tadbirlar har

bir o'quvchining iqtidoriga ko'ra, aniq yo'nalishlar bo'yicha chuqur o'qitish va dunyoning nufuzli oliygohlariga kirish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan. Shu maqsadda, 2023-yildan maktab ta'limining xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilinishi bugungi kun yoshlarining dunyoga chiqish imkoniyatlarini yanada oshirmoqda.

Bu fikrlarni raqamlarga aylantirib, so'nggi 5 yilda maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga kirish ko'rsatkichi 8,4 foizdan 38,7 foizga oshgani ko'rinadi. Bu shundan dalolat beradiki, zamonamiz yoshlariga ta'lim beruvchilarning o'zlari, albatta, davrning yetuk malakali o'qituvchilari bo'lib yetishmoqda. Zotan, bugun qaysi fan yo'nalishida ta'lim berilmasin, o'qituvchi kamida ikkita xorijiy tilni bilishi talab etilmoqda va bu talab ijoiy natijalar berishiga shubha yo'q.

Ayni paytda viloyatimizdagi 558 ta umumta'lim maktabida 1 ming 943 nafar chet tili o'qituvchisi, shu jumladan, 1 ming 902 nafar ingliz, 20 nafar nemis va 19 nafar fransuz hamda 2 nafar xitoy tili o'qituvchisi bolalarimizga saboq bermoqdalar. Eng muhimi, jami chet tili o'qituvchilarining 904 (50 foiz) nafari V2 va C1 darajadagi xalqaro va milliy chet tilini bilish sertifikatiga ega.

Yaqinda o'quvchilarning chet tilini qay darajada o'zlashtirganlarini bilish maqsadida O'zbekiston Prezidenti sovrini uchun «Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab» tanlovining tuman va shahar bosqichlarini o'tkazdik. Unda 1-o'ringa 100 million, 2-o'ringa 75 million



va 3-o'ringa 50 million so'm pul mukofotlari topshirildi. 2022–2023-o'quv yilida 11-sinf bitiruvchilaridan 105 nafari IELTS xalqaro sertifikatini qo'lga kiritdilar. 40 nafar bitiruvchi esa respublika va xalqaro sport musobaqalarida g'olib bo'lib, oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilindi. Quvonarlisi shundaki, Jizzaxda bunday o'quvchilar soni yildan yilga ko'paymoqda.

Olib borilayotgan ishlar real natijalar bilan bog'lanishi uchun o'qituvchilarning ish haqi 2 barabarga oshirildi va qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlari joriy etildi. «Zo'r klass» loyihasi doirasida 5 nafar rossiyalik malakali mutaxassisni ham ta'limga jalb etdik. Bundan tashqari, viloyatdagi barcha maktablarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tajribasini olib kirish ishlari ham tizimli tarzda amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda 117 nafar malakali pedagog xodimlarimiz Vazir jamg'armasi hisobidan qo'shimcha rag'batlantirilganini ta'kidlash joiz. Bunda har bir o'qituvchiga 9 oy davomida 5 mln. so'mdan ustamalar to'lanmoqda.

Shu bilan birga o'quvchilarning sifatli ta'lim olishlari va o'qituvchilar uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish maqsadida Davlat dasturlari doirasida 252 ta ta'lim muassasasida qurilish-ta'mirlash ishlari olib borildi. Ushbu maqsadlarga 519,5 mlrd. so'm mablag' yo'naltirildi. Jumladan, 2023-yilning o'zida 29 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida 79,2 mlrd. so'mlik, 19 ta maktabgacha ta'lim tashkilotida esa 44 mlrd. so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari olib bordik. Shuningdek, 2023-yilda o'tkazilgan Tasabbusli byudjet loyihasi doirasida 22 ta ta'lim muassasasida qurilish-ta'mirlash hamda jihozlash ishlari muvaffaqiyatli yakunlandi.

Bu ishlardan maqsad ilg'or texnologiyalar asrida yoshlarimizni har bir jabhada yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari va zamonaviy kasb-hunar

egallashlariga erishishdir. Ana shu yo'lda Jizzax viloyatidagi ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ilg'or texnologiyalar asosida sifatli bilim olishlari uchun viloyat hokimligi tomonidan 196 ta umumiy o'rta ta'lim maktablariga 3 072 dona kompyuter yetkazib berildi.

44 ta maktab elektron doska, 14 ta maktab robotatexnika vositalari bilan ta'minlandi. Shuni qayd etish joizki, viloyatimizda 558 ta maktab internetga ulangan bo'lib, shulardan, 444 tasi 40 Mbit/s, 111 tasi 100 Mbit/s tezlik bilan ishlamoqda. Yangi o'quv yilidan boshlab esa kasb-hunarga o'rgatish amaliyoti joriy etiladigan 13 ta maktabda mahalliy hokimliklar tomonidan to'liq jihozlash ishlari olib boriladi.

Yana bir raqam: 2022-yili umumta'lim maktablarini 16 534 nafar bola bitirgan bo'lsa, shundan 6 394 nafari (38,7 foiz) talabalikka qabul qilingan edi. O'tgan yili 16 880 nafar o'quvchining 97 nafari muddatidan oldin imtiyozga ega bo'lib, OTM'larga qabul qilindi. Bundan-da yuqori ko'rsatkichga erishish maqsadida maktab direktorlarini rag'batlantirib borish, ularning erkin faoliyat yuritishlariga imkon berish hamda ilg'or tajribalarini ommalashtirish choralarini ko'ryapmiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yili Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomalarida, «Biz Yangi O'zbekistonni «ijtimoiy davlat» tamoyili asosida qurishni maqsad qilayapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak. Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir. Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz. «Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezuq maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi», deya ta'kidlagan edilar. Darhaqiqat, «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» nomi bilan atalgan 2023-yilda ham ta'lim sohasiga juda katta sarmoya kiritildi.

Ma'lumki, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi Prezident, hududlarda esa birinchi rahbarlar hisoblanadi. Chunki ilm-fan, ta'lim-tarbiya, bor imkoniyatlardan foydalanayapmiz. 2024-yilga – «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili» deya nomi berilgani esa bu boradagi ishlarni yanada jonlantirishimizni taqozo etadi. Shuni qayd etish joizki, mamlakatimizda Inson qadri birinchi o'ringa qo'yilgan ekan, bunda har bir shaxs o'zi istagan kasb-hunar bilan shug'ullanishi va kelajakda o'zi xohlagan yo'nalishda faoliyat yuritishi uchun munosib sharoit yaratish bosh maqsadimiz bo'lib qolaveradi. Zero, yurtimizda har sohada ishning ko'zini biladigan, kreativ fikrlaydigan, vatanparvar, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol, eng asosiysi, o'z sohasining bilimdonlari ko'payishi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining kafolati bo'ladi.

✓ Ana, xolos!

Ota-onalar eshiting, o'qing! Muhtaram ustozlar, ta'lim tizimi mutasaddilari xulosa chiqaring!



O'zbekistonda telefon o'ynaydigan yoshlarda o'z salomatligidan nolib ko'plab shikoyatlar tushmoqda. Statistika natijasiga ko'ra, maktab yoshidagi bolalarda asabiylashish, tish og'rig'i, ovqat hazm qilish tizimida muammolar paydo bo'lmoqda. Eng yomoni, endokrin tizim, ovqatlanish va metabolik kasalliklar bilan bog'liq shikoyatlarga ega bolalar o'rtacha 41 foizni tashkil etmoqda.

Bu borada bugundanoq, choralar ko'rishni boshlaylik. Ertaga kech bo'lishi mumkin!



HALIMA XUDOYBERDIYEVA RAVSHAN KOMILOVDAN NEGA

RANJIGAN EDI?

Yaqin-yaqingacha ham «Qarg'alar uchsa qaralik»ni raqsbop qo'shiq sifatida bilardik. Ammo asl tarix ochiqdangach, ushbu qo'shiqqa nisbatan qarash butunlay o'zgardi. Bu-ku yuz yil oldingi tarix. Lekin qirq yillar nari-berisida yaratilgan «Muqaddas ayol»ning boshidan ham ko'p savdolar o'tganini ko'pchilik bilmasa kerak. Hatto ushbu taronaning ilk ijrochisi Sherali Jo'rayev ekanini bilarmidingiz? She'r muallifi Halima Xudoyberdiyeva nega Ravshan Komilovdan ranjigan edi?



bandi «Sen baribir muqaddasan, Muqaddas Ayol!» satri bilan tugallanadi. She'r 1987-yili shoiraning «Muqaddas ayol» to'plamida chop etiladi va bu kitob 1990-yilda Hamza nomidagi Davlat mukofotiga loyiq ko'riladi. Halima Xudoyberdiyevaning chin shogirdi Guljamol Asqarovaning yozishicha, ushbu she'rda ayol qismati, iztiroblari, yorug' hislari, hamma, hammasi mujassamlashgan. Ayollik oson bo'lmasda, ayol bo'lib yasalganiga shukronalik tuyg'usi ham bor. Hozirgi kunda guvohi bo'layotganimizdek, ayrim ayollarning ruhiy, jismoniy zo'ravonlik va tahdidlarga ham duch kelmoqdalar. Ayolga bu kabi tahdidlar hamma zamonlarda kuzatilgan. Shoir esa anan ushbu she'rda asrlarki, turli qarashlarga, ulug'lanishlarga, xo'rliklarga duch kelayotgan ayol hilqatiga «Sen kuchlisan, barchasini yengib o'tasan. Sen kim bo'lishingdan qat'iy nazar baribir ayolsan – muqaddas ayolsan», demoqda. «Muqaddas ayol» ilk bor 1988-yilda Sherali Jo'rayev tomonidan kuyga solinib, ijro etiladi. Eshqobil Shukur ta'biri bilan aytganda, o'shanda «Sen baribir muqaddasan, muqaddas ayol» degan chorlov paxta dalalarida qullarcha mehnat qilib ezilgan o'zbek ayolining sha'nini ko'targan. Shuning uchun ham bu qo'shiq xalq qalbining ovozig aylanadigan.

Ma'lumki, o'zbek she'riyatining darg'alaridan bo'lgan Halima Xudoyberdiyeva 1947-yilning 17-mayida Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida tug'ilgan. U «Saodat», «Guliston», «Dugonalar» jurnallarida, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi kengashi va bir qator nashriyotlarda ishlagan. Shoiraning «Ik muhabbat», «Oq olmalar», «Chaman», «Suyanch tog'larim», «Bobo quyosh», «Issiq qor», «Sadoqat», «Muqaddas ayol», «Yuragimning og'riq nuqtalari», «Hurlik o'ti», «Bu kunlarga yetganlar bor», «To'marisning aytgani», «Buyuk qushlar», «Saylanma» va «Tanlangan asarlar» kabi she'riy, nasriy to'plamlari chop etilgan. Halima Xudoyberdiyeva 2018-yilning 17-avgustida vafot etgan.

Shoiraning she'rlari haqida gap ketganda «Muqaddas ayol» Halima Xudoyberdiyeva ijodining shoh asarlaridan biri bo'lganini alohida ta'kidlash joiz. 1986-yilning 28-sentyabrida yozilgan, yetti banddan iborat she'rning har bir



– Sherali Jo'rayev ijrosiga kelsak, ustozim bilan suhbatlashganimda, har gal «Baribir Sher aka boshqacha kuylaganda, shu ijro menga ma'qul», deb aytganlar. Hofiz Halima Xudoyberdiyevaning yana ikki-uchta she'rini ham qo'shiq qilgan. Sherali Jo'rayev o'zi ayollar she'riyatiga ko'p ham murojaat qilmasdi. Repertuarida Uvaysiy, Nodirabegim g'azallarini, keyinroq Halima Xudoyberdiyeva she'rlarini kuyga solganini ko'rish mumkin, – deydi Guljamol Asqarova. Afsuski, ma'lum vaqt Sherali Jo'rayev sahnalardan, televideniya uzog'lashtirilgach, «Muqaddas ayol» qo'shig'i ham ijro etilmay qo'ydi. Keyinroq bu she'rni estrada yulduzlari jamoaviy ijro qildilar, Ravshan Komilov esa naqoratini saqlab qolib qayta kuyladi. Bu haqda Guljamol Asqarova shunday deydi: Afsuski, shunday qo'shiqni Ravshan Komilov mutlaqo jo'n va maishiy darajaga tushirib yubordi. Musiqasi chiroyli, lekin u she'rni o'zgartirib ijro etgan, bu esa mualliflik huquqining buzilishiga olib kelgan. Halima opa Ravshan Komilov so'ramasdan ijro etgani uchun xafa bo'lmagan, faqat she'rni o'zgartirib yuborganidan ranjigan edi...

Xulosa oldidan
Guljamol Asqarovaning fikrlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin: aslida bu she'r chuqur dard bilan sug'orilgan, demakki, qo'shiq ham shunga yarasha bo'lishi kerak edi. Ammo estrada xonandalari bunga e'tibor bermadilar. Faqat naqoratdagi baland ruhga tayanib marh darajasida kuylashdi. Mas'ullar ham negadir bunga panja orasidan qarashdi...

Malohat YO'LCHIYEVA
tayyorladi.

GLOBALLASHUV DAVRI

BARCHA ZIYOLILAR, PEDAGOGLAR, OLIMLAR, UMUMAN, KENG JAMOATCHILIKDAN YOSHLARNING MA'NAVYI- AXLOQIY TARBIIYASI YO'LIDA FAOL BO'LISHNI TAQOZO ETMOQDA



Shuhrat SIROJIDDINOV:
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti
rektori, akademik

Globallashuv jarayonlarida g'arbda yaqqol ko'zga tashlanayotgan ma'naviy tanazzul insoniyat tarixining bugungi bosqichida yuzaga kelgan postmodernizm illati sabablidir. Ushbu ma'naviy fojiani Internet tarmoqlari orqali bizning ma'naviy hayotimizda ham aks sado berayotgani milliy qadriyatlarimizga befarqlikka olib keladigan jiddiy xavfdir. Davlatimiz rahbari tomonidan o'rta tashlangan Yangi O'zbekiston milliy g'oyasi va Uchinchi Renessans poydevorini qurish kabi ulug' maqsadning amalga oshishi yosh avlodga milliy qadriyatlarini ulug'lash, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi insoniy fazilatlar yuqori bo'lishini taqozo qiladi. Ma'naviy tahdidlarning kuchayishi jamiyat murabbiylari bo'lmish ziyolilarimiz oldiga bir qator muhim vazifalarni qo'yadi, albatta. Prezidentimizning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqini tinglaganikamiz, buni yanada teranroq his qildik.

Nutqda ilm-fan, tarbiya va ma'naviyatga e'tiborni kuchaytirish davlat va ziyoli ahlining ustuvor vazifasi bo'lishi zarurligi ta'kidlandi. Ayniqsa, Prezidentimizning «Hammamiz bir haqiqatni unutmashimizni istardim. Hayot bor ekan – jaholat bor, ma'naviy tahdidlar ham bo'lishi tabiiydir. Ammo eng xatarlisi yurt kelajagiga loqaydlik, ezgu

qadriyatlarga nisbatan beparvolikdir. Tinch va farovon hayot qurish uchun, avvalo, odamlar qalbida bir-biriga hurmat, xalqqa, Vatanga mehr va ishonch mustahkam bo'lishi zarur», degan gaplari har bir millat fidoyisi uchun ma'naviy tahdidlarga qarshi hayot-mamot kurashiga chaqiriqdek yangradi. Prezident oxirgi yillarda mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar, yutuqlar haqida to'xtalar ekan, moddiy jihatdan boy bo'lish bilan birga ma'naviy yuksak xalqqa ega davlatga rivojlanishi borasida o'z fikrlarini bildirib, yosh avlodni asrab-avaylash, «bog'cha – maktab – oliy ta'lim» tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini kuchaytirish bo'yicha keskin choralar ko'rishni bosh vazifa qilib belgiladi. Shu yo'nalishda madaniyat sohasi vakillari, ulamolalar va turli soha mutasaddi rahbarlarini yaqindan hamkorlik qilishga chaqirdi. Yig'ilishda ma'rifatparvar jadedchi bobolarimizning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un hamda hamohang ekanligi yorqin kelajagimiz uchun poydevor bo'lishi ham alohida ta'kidlandi. Shundan kelib chiqib, bugun g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya masalalarida davlat va jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalar o'rta tashlandi. Darhaqiqat, faqat butun jamiyat, ya'ni barchamiz so'zda, fikrda,

mafkurada birlashsak, katta avlod, kasb-koridan qat'i nazar, tom ma'noda jamiyat murabbiysiga aylansakina, xuddi jadedlar singari ma'rifat yo'lida yakdil bo'lib, oliy maqsadlarimizga erishamiz. Prezidentimiz yosh avlod tarbiyasida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni, xususan o'zbek tili va adabiyotining ma'naviyat asosi sifatidagi maqomiga alohida to'xtalib, muallimlar, ijod ahli va soha olimlarini bir yoqadan bosh chiqarib, uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy-mafkuraviy ishlarini kuchaytirish bo'yicha muntazam faoliyatni yo'lga qo'yish, san'atkorlar va kinochilar bilan hamkorlikda buyuk mutafakkir bobolarimizning asarlarini bolalarbop qilib tushuntirib beradigan risolalar, badiiy asarlar, sahna asarlari va multfilmlar yaratish, tarjima ishlarini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qator topshiriqlar berildi. Yig'ilishda shuningdek, o'zbek tilining rivoji, uning istiqboliga alohida e'tibor qaratilib, anchadan beri ziyolilar ko'nglidan o'tayotgan masalalar ham tilga olindi. Xususan, o'zbek tilini bilish darajasini baholash bo'yicha sertifikatlash tizimini joriy etish, mana shunday sertifikatga ega o'qituvchilarga qo'shimcha haq to'lash tizimini yo'lga qo'yish haqidagi qaror bir ustoz sifatida meni juda ham to'lqinlantirdi. Aytish kerakki, maktablarda yosh avlod qalbiga

vatanparvarlik, jo'mardlik, millatsevarlik singari tuyg'ularni singdirayotgan va ayniqsa, axloq-odobni o'rgatayotgan birinchi navbatda ona tili va adabiyoti o'qituvchilardir. Shu bois ham ularning obro'sini ko'tarish, birinchi navbatda, o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyatiga e'tiborni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan ularning o'z faniga bo'lgan mas'uliyatni oshiradi. Fursatdan foydalanib, xo'rjida yashayotgan vafandoshlarimiz orasida o'zbek tilini o'rgatish orqali Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans g'oyalarini singdirish masalasi ham oldimizda turgan ma'naviy-mafkuraviy ishlarimizning tarkibiy qismi ekanini alohida ta'kidlashni istardim. Shuning uchun ham o'zbek diasporalari mavjud bo'lgan AQSH, Koreya Respublikasi, Rossiya federatsiyasi va boshqa ko'plab mamlakatlarda Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va madaniyati markazlarini ochishni rejalashtiryapmiz. Aytish joizki, milliy g'ururi baland, yurtimiz tarixini puxta biladigan, milliy qadriyatlarimizga sodiq mutaxassislarimiz bilan birga Prezidentimiz boshchiligidagi olib borilayotgan ezgu islohotlarda oldingi safda bo'lish va bor kuch-g'ayratimizni Yangi O'zbekistonni barpo etishga, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga sarflashni o'z burchimiz, deb hisoblaymiz.

✓ Til ilmidan bir chimdim

Nega Yusuf Xos Hojib o'z asarida «Alloh» ismini qo'llamagan?

S hubhasiz, ulug' mutafakkir adib Yusuf Xos Hojib o'z davrining e'tiqodli kishilaridan edi. Ammo shunga qaramay, ul zot «Qutadg'u bilig» asarida biror marta ham «Alloh» ismini qo'llamaganlar (Firdavsiy ham «Shohnoma»da asosan «Yazdon» ismini ishlatgan). Asar ushbu jumla bilan boshlanadi: «Hamdu sepa su minnatu ogdi Tenri'azza va jallaga hamd, sipos, minnatdorchilik va maqto...».

Asar davomida «Alloh», «Xudo» ma'nosida asosan «Bayat», «Tangri» qo'llanilgan (Ma'lumki, Islomdan oldin ba'zi sharqiy turkiy qavmlar buddaviylikka e'tiqod qilgan. «Xudo» ma'nosidagi «bayat» so'zi o'sha davrlarda sanskritdan turk tillariga o'zlashgan deb qaraladi). Adib Allohning sifatlarini ham ko'p o'rinlarda turkcha so'zlar bilan berishga harakat qilgan. Xususan, asarda «ug'an» («qodir»), «ulug'lug' idisi» («ulug'lik egasi»), «erklig bayat», «bag'irsaq idi» (mehribon egam), «teyrtgan» («yaratgan»), «igidigan» («parvarish etgan»), «idim» («egam») kabi sifatlar uchraydi. Payg'ambar esa asarda ba'zan «rasul», ko'p o'rinlarda: «Muhammad yalavach» («Muhammad elchi»), «sevyg savchi» («suyukli elchi») kabi sifatlar bilan ataladi. Asarda, shuningdek, «jannat», «do'zax» so'zlari ham uchramaydi, ular o'rinda adib «uchmaq» («jannat»), «tamug'» («do'zax») so'zlarini qo'llaydi.

Ma'lumki, insoniyat Odam Ato va Momo Havodan tarqalgan degan ma'noda bashariyatga nisbatan «bani

odam», «odam bolasi» deb aytiladi. Bu ibora «Qutadg'u bilig»da faqat «apa og'lan» shaklida uchraydi. Qadimgi turkiyda «apa» («aba») hozirgi o'zbek tilidagi «opa»ni emas, balki «ota», «bobo» va umuman «odam» ma'nolarini anglatgan. Shu kabi asarda: «toat-ibodat» o'rnida – «tapug'», «gunoh» – «yazuq», «crizq» – «tirilgu», «banda» – «qub», «bandalik» – «qulluq», «Allohning hukmi» – «bayat yarlig'i», «dunya» bilan birga «ajun», «qiyomat kuni» – «konilik kuni» kabi so'z va iboralar ishlatiladi.

Shuni ham alohida qayd etish joizki, barcha dinlar, diniy, falsafiy ta'limotlarda «vujud» va «ruh» tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Bu angamlar Islomdan oldin ham o'z din, inonchlariga ega bo'lgan, shuningdek, ma'lum davrlarda moniylik, buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik kabi din va ta'limotlar ta'sirida bo'lgan turkiy xalqlar uchun ham begona emas edi. O'rta asrlarda moniylik, buddaviylikka oid ko'pgina manbalar qadimgi turk tiliga tarjima qilingan va shular asosida qadimgi turkiyda ham diniy-falsafiy atamalar shakllana boshlagan edi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari ana shu zaminda paydo bo'ldi va shu bois adib uchun arabcha «vujud» yoki «ruh» so'zlarini emas, balki shu anglamdagi turkiy so'zlarni qo'llash tabiiyroq edi. «Vujud» ma'nosida asarda adib hamma o'rinlarda – «etoz» atamasini qo'llaydi. «Et» va «oz» («o'z») so'zlari qo'shib yasalgan bu atama – «tana», «vujud», «jism» ma'nolarini bildiradi va u boshqa ba'zi qadimgi turkiy yodgorliklarda ham uchraydi. Yusuf Xos Hojib «tana», «jasad» ma'nolarida ba'zan «kelbat» so'zini ham qo'llaydi. «Ruh» ma'nosida esa asarda hamma o'rinlarda – «jan», «nafs» ma'nosida – «bog'uz» so'zlari



kelgan (forscha «jon» so'zi turk tillariga diniy-falsafiy atama sifatida oldinroq o'zlashgan):

«Etoz yligi barcha bog'uzdin kiryr Bu jan yligi chin sez qulqin kiryr», Ma'nosi: «Vujudning hissasi bog'izdan kiradi, jon (ruh)ning hissasi chin so'z bo'lib, quloqdan kiradi» (Q.B. T. «Fan», 1971.200-bet).

Shuningdek, «Qutadg'u bilig»da Qur'on oyatlari ma'nosi singdirilgan baytlar ham bor. Alqissa, Alloh ismini tilga olmasdan, uni Yaratgan, Tangri deb o'ziga yaqin o'z ona tilida atab ham imon egasi bo'lish mumkin ekan.

Afsuski, o'rta asrlarda shakllana boshlagan ma'naviy, falsafiy-diniy turkiy til keyingi davrlarda rivojlanilmadi, chin turkiy atamalar o'rnini arabiy, forsiy istifolohar egalladi va oqibatda minglab so'zlar o'limga mahkum etildi. Afsuski, bu illat hozir ham davom etmoqda.

Abduvohid HAYIT.
G'ayrat Majidning FBdagi sahifasidan olindi.



Нахотки, ўзбек халқи «ош бериш»га шу қадар муқкасидан кетиб қолган миллатга айланиб қолган бўлса? Нахотки, «овоза» бўладиган тўй ёки маросим ўтказиш, обрў ғамиди тўй қилиш, кўп ҳолларда эса қарзга ботиш ва биллаб қарз узиш ҳаёт тарзимизга айланиб ўлгурган?



НЕГА БЕХБУДИЙНИНГ САВОЛИ ҲАМОН ЖАВОБСИЗ ҚОЛМОҚДА

ёки Ўзбекистонда тўйлар ҳақида

ҚОНУН ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИНИ ТАКЛИФ ҚИЛАМАН

Бундан бир аср аввал ўзбекнинг бош кайғуси нима эди – тўй билан аза! Ҳозир-чи? Ҳозир ҳам аҳвол шу – туғилишдан қадаргача асосий ташвиш – ёмоқ, ичмоқ, элга ошни кўз-кўз этмоқ. Бу маънода, Маҳмудхўжа Беҳбудий, «Астағфируллоҳ, субҳоноллоҳ. Бизни қиладургон ақлсизлигимизни қайси миллат қилур? Ниҳоҳ, хатна, бу икки бало шундоқ қаттиқ бир миллатки, ўлмагунча қутулиб бўлмайду...», деганида қанчалик ҳақ эди.

Аччиқ ҳақиқат шундаки, бугун ҳам Беҳбудий тилга олган «бизни кемирувчи иллатлар»ни санасак адоғига етолмай қоламиз. Мана бир мисол: айрим таҳлилчиларнинг фикрича, биргина пойтахтнинг ўзида бир кунда тўй ва бошқа тадбир маросимларда 40 тоннагача ош тайёрланар экан. Хўш, Тошкентдан андоза олаётган ҳудудларимиздаги тўйларда қанча ош истеъмол қилиняпти? Бу рақам чиндан ҳам ўйлангирди кишини. Агар Беҳбудий, Фитрат ёки Ҳамза Ҳакимзодадек миллат оидинлари ҳаёт бўлиб, 40 тонналик ошхўрлигимизни эшитсалар, қандай аҳволга тушардилар...

Ана энди бошқа бир савол туғилади: нахотки, ўзбек халқи «ош бериш»га шу қадар муқкасидан кетиб қолган миллатга айланиб қолган бўлса? Нахотки, «овоза» бўладиган тўй ёки маросим ўтказиш, обрў ғамиди тўй қилиш, кўп ҳолларда эса қарзга ботиш ва биллаб қарз узиш ҳаёт тарзимизга айланиб ўлгурган? Ишонин кийин, аммо ана шу ҳашаматга ўчлигимиз касофатидан қанчадан-қанча оилалар бузиляпти, ёшлар бахтсиз бўляпти. «Маҳаллада дув-дув гап бўлган» сон-саноксиз тўйларнинг эртасига эса «қатта қарзни» узиш учун куёв тўра мусофир юртларга йўл оляпти.

Ёки яна бир мантиқсизлик – фарзандларимизни китоб ўқимаётганликда айблаймиз, бу борада ўзимиз намуна бўлишни ҳаёлимизга ҳам келтирмаймиз.

Мақтаб, китоб, устоз ҳақида баландпарвоз гаплар гапиримиз, ўқитувчилар кунига ёки бирон-бир тантана, газета-жур-

НАХОТКИ БИР ТҮЙДА БУЛИБ, ТҮҒРИСИ ИККИ КУДАГА ТАН БЕРДИМ. ИХЧАМГИНА, ОРТИҚЧА ХАШАМ ВА ИСРОФГАРЧИЛИКЛАРСИЗ УТГАН ТҮЙДА «НОМДОР» САЪЯТҚОРЛАР БУЛМАДИ. КЕЛИН-КУЁВ ТАЛАБА ЭКАН. ИККИ ТОМОН УЗАРО КЕЛИШИБ, ТҮЙДА КЕЎРАДИГАН ХАРАЖАТЛАРИНИ АНЧА ҚИСҚАРТИРИБ, ПОЙТАХТДАН УЙ ОЛИБ БЕРИШИДИ.

нал обунаси учун йиғилган арзимаган пул учун мактабни «разбор» қилишдан тоймай-миз. Ҳатто, ҳар бир тўй учун пул сарфлайдиган аёлларимиз ҳам ўқитувчига гул олиш учун пул бераётганида, ярим ҳазил, ярим чин «ма, ол, тешиб чиқсин», қабилада иддао қиладиган бўлиб қолганлар. Шундай ҳунук муносабатдан кейин фарзандингизда ўқишга, китобга, энг асосийси, устозга ҳурмат ошади, келажакда устозидек педагог бўлишни орзу қилади, деб ўйлайсизми?

Йўқ, албатта. Бундай муносабат болани тўғри йўлдан қайтаради, илмга, мактабга бўлган муҳаббатини сўндиради! Айтинг, бугунга келиб ижтимоий тармоқларда зое кетаятган вақтимизни китобга,

мутолага сарфласак, бу боламизга ўрнатқ бўлмасми? Тан олайлик: бугун ҳатто, кутубхоналари, театрларга олиб борадиган йўлларни ҳам унута бошладик. Аксинча, қатта-кичик тadbирларда ким ўзарга дастурхон тузаш, исроф бўлган ҳисобсиз озиқ-овқатларни чикиндига ташлашдан уялмайдиган миллатга айланиб бораётимиз.

Айрим иллатларга эса қадрият сифатида қарайдиган ҳам бўлдик. Айтайлик, «қуддага сининиш», аникроги, киз берган хонадонга «етти букилиб салом бериш». Гўё, кизнинг сарпоси қанчаллик зўр бўлса, қайнона-келин муносабатлари шу қадар мустаҳкам бўлиши ҳам қуддалар ўртасидаги ёзилмаган қонунга айланаяпти. Албатта, ҳамма ҳам бундай фикрда, қарашда эмас.

Бахорда бир тўйда бўлиб, тўғриси икки қуддага тан бердим. Ихчамгина, ортиқча хашам ва исрофгарчиликларсиз ўтган тўйда «номдор» санъатқорлар бўлмади. Келин-куёв талаба экан. Икки томон ўзаро келишиб, тўйда кўрадиган харажатларини анча қисқартиришиб, пойтахтдан уй олиб беришибди. Афсуски, бу инсонлар каби етти ўлчаб бир кесадиган, бугунини эмас, эртасини ўйлайдиган инсонлар қамайиб кетаяпти орамизда...

Қайта-қайта Беҳбудийнинг сўзларини ўқийман: «Шаҳарларда ўртақоҳ, яъни ўтурағи хона ва боғи бор бир киши никоҳ учун икки миң сўм сарф этар ва ўғул хатна-

си учун ҳеч бўлмаганда миң сўм... Охири нима бўлур? Нима бўлур дейсиз? Ота-бобосидан қолган мулк ва ватанини ўз ихтиёри ила зўраки бойни ўзи ўлгандан сўнгра бир яҳудий ё бир армени ақсинабийга сотиб тўй ва таъзия қарзини берар... Самарқанда бир маҳалла борки, аксар халқи фақру заруратдан, тўғриси, ақл ноқислиғидан ҳавиларини тулга қизикиб, яҳудийларга сотгани учун маҳаллада оз мусулмон қолди. Маҳалла мактаби йўқ бўлди.

...Яҳудийлар баъзан ўлукларини оқшош элтиб кўмарлар. На учун? Кундузи ишдан қоларлар. Биз бўлсак, ўлук ва тўй учун ўфталар, ҳатто оилар ила ишдан қолурмиз. Ҳолбуки, шореъи азам, Пайгамбари акрам саллаллоҳу алайҳи ва саллам ҳазратлари ўлгани тез кўмуб ва кўмгандан сўнгра тез тарқалиб, ишга кетмоққа ва ўлукхона халқини уч қундан зиёда таъзия тутмасга, қаро киймасга, кир, фалокат бўлмасга амр этарлар!

Эй халқ! Эй мусулмонлар! Биз на учун Худо ва расулини сўзига ва ўзимизни нафъимизга амал қилмаймиз? Биз девонами?»

Тўйдаги урф-одатлар, исрофгарчиликлар сингари жанозаю, маъракалар, Умра ва Ҳаж эҳсонлари ҳам тобора семириб бораётгани ҳам аччиқ ҳақиқат. Хўш, бу каби мақсадсиз сарф-харажатлардан кимга наф?

Яқинда пойтахтда яшашим, қариндошларнинг тўй-маъракаларига «бирров»га боришим панд берди. Кишлоқнинг умуммиллий урф-одатларини билардим, янги «қашф» қилинганлардан хабарим йўқ экан. Қайнотамнинг дафн маросимида айрим одатлар, тартиб-

қоидалардан гангиб қолдим. Устимдан қулганлар ҳам бўлди. «Маҳалла хотинлари»нинг айтишича, дол-вой солиб йиғлаш, йиғининг етти маҳаллага эшитилиши марҳум учун «обрў» экан. Аслида бундай пайтларда марҳумга қараб туриб, умр ғанимат, жон омонатини, бир кун хаммасини орда қолдириб, «борса келмасга» кетишни хис қилишнинг ўзи бугунгиздан алам билан отилиб чиқадику. Турли ирим-сиримларга тўла маъракада маҳалла қайвониси ҳам, имоми ҳам хар қанча гапирмасин одамлар ўзлари ўрнатган тартиб-қоидаларга амал қилишга ҳаракат қилишди. Беҳбудий бобомиз айтганлиқ иллатлар бизни ўз домига тобора тортиб, илдиз отаётгани, диний идора вакилларининг маҳаллалар билан «ғизимли суҳбатлар» ўтказаятгани наф бермаётган экан, бу борада қаттиқроқ чоралар қўллаш керакдир, деб қоласан. Балки ошириб юбораётгандирман. Лекин кўрганларимдан олган хулосам шу бўлди...

Агар Ёдингизда бўлса, 2019 йилнинг 14 сентябрийда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати кенгашларининг тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар ўтказилишини тартибга солиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисидаги қўшма қарор қабул қилинган эди. Шу асосда бу каби саъий иллатларга барҳам бериш мақсадида Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгашларида, шунингдек, фуқаролар йиғинларида тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар ўтказилишини тартибга солиш масалалари бўйича комиссиялар фаолияти йўлга қўйилди. Савол туғилади: мазкур комиссиялар халқ ишлайётган бўлса, уларнинг кўзларини қаёққа, таъсирлари нега сўст ёки умуман йўқ...

Зотан, «бизни кемирувчи иллатлар»нинг кун сайин авж олаётгани ушбу иллатга қарши қонун ёки етти ўлчаб бир кесиладиган бошқа бир ҳужжатга эҳтиёж борлигини кўрсатапти. Азиз ўқувчи, Сиз, шу ҳақда нима деб ўйлайсиз, қон-қонимизга сингиб кетган ва кун сайин болаётган гайриоддий одатлардан узоклаша оламизми?



Маҳбуба КАРИМОВА «Миллий тикланиш» мухбири

✓ Ана холос...

Истеъдод хавфи

Айтишларича, Америкалик машҳур шахматчи Роберт Фишер ўйин ҳайтида мутлак сукунатни талаб қилар ва арзимаган шовқинни ҳам огрикли қабул қиларди. Афсоналарга кўра, ҳатто сезилмас-сезилмас шивирлаш ҳам Фишерни фикрлашдан чалғитиб ўйинга ҳалакат бераркан.

Борис Спасский билан бўлаётган мусобаканинг навбатдаги ўйинида Фишер кутилмаганда фигуралар тўла шахмат доскасидан нигоҳини олиб, томошабинлар билан тўла залга қараб қичқиради: - Ун иккинчи қатордаги ҳой киз, зудлик билан конфет сўришни бас қил! Конфетга тегаётган тишларингизни овози жудаям ёқимсиз, у диққатини жамлашга ҳалақит берапти. Залда ўтирган журналистлар, мухлислар ва гроссмейстерлар Фишернинг асабига теккан кизни залдан кидира бошлайдилар. Соқинликни бузган кизни топиш қийин бўлмади.

Ширинлик шайдоси тўқ қизил рангли кўйлақда бўлиб, сочларига зангори бантик тақилганди. Бу – исляндиялик шахматчи киз эди. - Ахир мен эндигина учинчи конферимни едим, холос деб ўзини оқламоқчи бўлади исляндиялик киз - Астрид Беердоттир. У бутун залдагилар нигоҳи ўзига қаратилганини сезиб, кизариб кетган эди. - Учинчи марта эмас, еттинчисини сўраяпсан кичкина ёлгончи! Мени санамаяпти деб ўйладингми? - деб эътироз билдиради Фишер кўзларини шахмат доскасидан узмай, иягини ишқалаган ҳолда.



Ихтиёр ЭСОНОВ

✓ Кутинг!

Қуръони қаримни қандай тушуномок керак?

Келгуси сонларда

Ахмадали АСҚАРОВ, Низомий номдаги ТДПУ Тарих факультети профессори, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби ва ёшлар мураббийси



Дилингизда бўлсин қувончи ғами,
Китобларда эмас, қоғозда эмас.
Бўзда яшайсизми, Бухородами,
Сиз билан баробар улсин нафас.

Болангизни белаб қўйинг туш пайти,
Толлар беланчакни учирсин кўкка.
Аммо сиз бошида аллалар айтинг,
Ватан туйғусини солинг юракка.

Айтинг, далаларда эгилган лаҳза,
Айтинг, куёш қонга ботиб ётганда.
Айтинг, қувончу ғам солганда ларза,
Айтинг, оқ кўйлакли тонлар отганда.

Жанозада йиғлаб аллалар айтинг,
Айтинг, шуурлару курашлар аро.
Токи қалбимизда жўш урган туйғу
Фарзандлар қалбиди берсин акс-садо.

Она Тўмариснинг шонли қисмати,
Жалолиддин тиғи таратган жаранг,
Бизнинг юраккача, балки, етмасди,
Бўлмаганда, халқим, алланг — хотиранг.

Беруний юлдузи, Сино қаққашони
Фалақдан йўлимиз ёритиб боқсин.
Маҳмуд Торобийнинг муқаддас қони
Фарзандлар қалбиди жўш уриб оқсин.

Ҳазрат Соҳибқирон тузуқларидан
Кўчиб, фикрларни ёритсин сурур,
Дилларни чароғон этсин Навоий
Қалами таратган ҳикматли шуур.

Мирзо Улуғбекнинг расадин тоқи,
Юрган йўлимизга нурлар тўшасин,
Ватан деб жон берган ҳар ботир хоки
Дилда нафас олсин, дилда яшасин.

Ватан – юракдаги қувонч, қайғу, шашт,
Уни тирик сақлар юракдаги сас.
Ватан – бамисоли куёшга ўхшаш,
Ватан ҳам одамдек олади нафас.

ЖОНИМ ИЧРА ЖОНИМДУРСАН

Бу дунёда жаннат монанд ерлар бисёр,
Бу дунёда оқу қаро эллар бисёр,
Аммо йўқдир бу дунёда сендек диёр,
Жоним ичра жонимдурсан, Ўзбекистон.

Тупроғингда ажодларим изи қолган,
Боболарим терларининг тузи қолган,
Ҳар гардида момоларим кўзи қолган
Жоним ичра жонимдурсан, Ўзбекистон.

Ўзбек элим, нури дийдам, қароғимсан,
Ўзбек элим, осмониму тупроғимсан,
Ҳам қувончим, ҳам бахтиму фироғимсан,
Жоним ичра жонимдурсан, Ўзбекистон.

Бешигингда аллаладинг дунёларни,
Дунё очган неча-неча даҳоларни,
Болам дединг юраклари адоларни,
Жоним ичра жонимдурсан, Ўзбекистон.

Соҳибқирон қўллариди қалқон бўлдинг,
Улуғбекнинг нигоҳида осмон бўлдинг,
Мирзо Бобур юрагида армон бўлдинг,
Жоним ичра жонимдурсан, Ўзбекистон.

Кўли қадоқ дехқон элим, султон элим,
Кўкси юртга доим балогардон элим,
Ўз юртига соҳибқирон ҳоқон элим,
Жоним ичра жонимдурсан, Ўзбекистон.

БУ ГУЛ СИЗНИКИ

Биласизми, баъзан тунлари
Соғинаман сизни жудаям...
Истайман шу маҳал:
Тун каби
Сизни маҳкам бағримга боссам.

Истайман мен:
томчи ёш бўлиб
Юзингиздан ўтсам сирғалиб.
Рашк қиламан сизни: қанчалар
Чиройингиз очар сирғалар.

Шамол сочган сочларингизнинг
Оловида кетсайдим куйиб.
Кечалари босиб бағримга,
Умр қисқа эканин туйиб —

Дали, телба бўлгим келади
Ишқингиздан, ҳасратингиздан
Ва соғинчдан ўлгим келади
Кўзим узмай суратингиздан.

Бола бўлиб қолсаму сизни,
Йиғлай дейман, маҳкам қучоқлаб,
Ўлгим,
Ўлгим,
Ўлгим келади
Ўз-ўзимни тиғлаб, пичоқлаб.

Қонимдан-да бир гул ундириб
(Баҳорнингмас, бўлсин кузники)
Шивирлагим келади аста:
«Олинг, олинг...»
Бу гул сизники!..»

SAVOI BERING!

— Эндиликда қишлоқ хўжалиги ерларига бўлган ижара ҳуқуқини сотиш мумкин деб эшитдим. Шу ҳақда маълумот берсангиз.

Хабибулла Лутфуллаев, Когон тумани

— «Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларини ижарага бериш тартибини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги Президент Фармонида кўра, 2024 йил 1 мартдан қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкалари ижарачиларига ижарага берилган ер участкалари бўйича ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини бошқа шахсга ўтказишга (қайта ижарага беришга) руҳсат этилади.

— Вояга етмаган болаларга қанча вақт алимент тўламаслик жиноий жавобгарликка сабаб бўлиши мумкин?

Дониёр Каримов, Учкудук тумани

— Жиноят кодексининг 122-моддасига кўра, моддий ёрдамга мухтож бўлган вояга етмаган ёки меҳнатга лаёқатсиз шахсни моддий таъминлашдан бўйин товлаш, яъни уларни моддий жиҳатдан таъминлаш учун суднинг ҳал қилув қарорига ёки суд буйруғига биноан ундирилиши лозим бўлган маблағни жами бўлиб икки ойдан ортиқ муддат мобайнида тўламаслик, шундай қилмиш учун маъмурий жазо кўлланилганидан кейин содир этилган бўлса — икки йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёки бир йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

— Ҳайдовчилик гувоҳномаси неча ёшдан берилади? Мадина Ойбекова, Андижон шаҳри

— Вазирлар Маҳкамасининг 12.04.2022 йил 172-сон қарорига асосан, транспорт воситасини бошқариш ҳуқуқига эга бўлиши учун ўрганувчи ўқув муддати якунида қуйидаги ёшга тўлган бўлиши керак:
• «А» тоифаси учун — 16 ёшга;
• «В» ва «С» тоифалари учун — 18 ёшга;
• «ВЕ» ва «СЕ» тоифалари учун — 19 ёшга;
• «D» ва «DE» тоифалари ҳамда трамвай ва троллейбуслар учун 21 ёшга.

Юрист блогер расмий телеграм канали

— Педагог кадрлар малака тоифасини беришнинг янги тартиби жорий қилиниши белгиланган эди. У қачондан кучга кириди ва нималарни ўз ичига олади?

Азиза Бурхонова, Ўқитувчи

— Президентнинг 26.05.2023 йил ПФ-79-сон Фармонида асосан, 2024 йил 1 январдан давлат мактабгача, умумий ўрта ва мактабдан ташқари таълим ташкилотлари педагог кадрларига малака тоифасини беришнинг янги тартиби жорий қилиниши белгиланган. Малака тоифасини олиш бўйича синовлар бир йилда камида бир маротаба икки босқичда ўтказилади ҳамда биринчи босқичда талабгорнинг мутахассислик фани ва касб стандарти бўйича билим даражаси, иккинчи босқичда — педагогик маҳорати баҳоланади.

Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги Ахборот хизмати

— 5 йил олдин судланиб, жазо муддатини тўлиқ ўтаганман. Ишга кириш учун ҳужжатларимни топширсам, илгари судланганлигимни сабаб сифатида кўрсатишиб, ишга қабул қилишмади. Шу тўғрисида?

Санджон Акбаров, Тошкент шаҳри

— Нотўғри. Меҳнат кодексининг 119-моддасига асосан, судланганлиги, шу жумладан тугалланган ва олиб ташланган судланганлиги сабабли шахсларни ишга қабул қилмаслик, (бундан қонунчиликда назарда тутилган ҳоллар мустасно) ёхуд шахсларни уларнинг яқин қариндошлари судланганлиги, шу жумладан тугалланган судланганлиги муносабати билан ишга қабул қилмаслик қонунга хилоф ҳисобланади.

— Кўчмас мулк сотиб олмоқчиман. Унинг пулини тўлашдан олдин у ернинг бузилиши (снос)га тушган ёки тушмаганлиги тўғрисидаги аниқ ва ишончли маълумотни қаердан ва қандай олсам бўлади?

Дилдора Расулова, тадбиркор

— Ҳуқуқнинг 200-сонли қарори билан тасдиқланган Маъмурий регламентга кўра, ариза берувчи маълум бир турар жойнинг бузилишга тушган ёки тушмаганлиги тўғрисидаги маълумотномани олиш учун Давлат хизматлари марказига шахсан мурожаат этиши ёки ИИДХП орқали давлат хизматидан электрон тарзда фойдаланиш учун рўйхатдан ўтиши мумкин. Давлат хизматларини кўрсатиш учун базавий ҳисоблаш миқдори (340 минг сўм)нинг 5 фоизи (17 минг) миқдорда йўғим ундирилади. Давлат хизмати кўрсатилиши учун ИИДХП орқали мурожаат этилганда йўғим суммаси (5 фоиз)нинг 90 фоизи миқдорда ундирилади. Давлат хизматларини кўрсатиш учун йўғимни тўламаслик хизмат кўрсатишни рад этиш учун асос ҳисобланади.

Юрист блогер расмий телеграм канали

✓ Спорт



БИЗ НИМЧОРАКДАМИЗ!

Доҳа шаҳрида ўтаётган футбол бўйича Осиё кубоги баҳсларининг гуруҳ босқичи 3-тур учрашувида Ўзбекистон ва Австралия терма жамоалари учрашувида 1:1 ҳисоби қайд этилди. Учрашувнинг биринчи бўлими 45-дақиқасида Бойл пенальтидан гол уриб, Австралияни олдинга олиб чиққан бўлса, иккинчи бўлимнинг 78-дақиқасида Жалолиддин Машираповнинг узатган тўпини Азиз Турғунбоев боши билан рақиб дарвозасига жойлаб қўйди. «В» гуруҳида Австралия 7 очко билан гуруҳ пешқадами сифатида нимчорак финалга йўл олган бўлса, Ўзбекистон терма жамоаси 5 очко билан иккинчи ўринни эгаллади. Сурия термаси 4 очко жамғарган ҳолда учинчи поғонадан жой олди. Энди футболчиларимиз 30 январь кuni «F» гуруҳида иккинчи ўринни эгаллаган терма жамоа билан чорак финал йўлланмаси учун куч синашади.

ЎЗА

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV, Abror PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Nuriyman ABULXASAN,

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxozoda ko'chasi, 1 A-uy. Gazeta tahririyat kompyuter markazida teridi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Gazetada Internet ma'lumotlari va suratlaridan foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborida bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Abdug'afur OMONBOYEV, Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruz XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxonaning manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan №0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 036.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 121
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 00:50

Telefon:
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456